UNG
Shurtan GKM

"O'zbekneftgaz" AJ
"Shurtan gaz kimyo majmuasi" MCHJ
MTRB xizmati
RO'YXATGA OLINDI
0741062-2254
2022yil "26" 04

№:

"TASDIQLAYMAN"
«Sho'rtan GKM» MChJ
Ekspert-texnik komissiyasi raisi

N. Xalilov

«26» 04 2021 y.

"Sho'rtan GKM" MChJ ehtiyoji uchun
Non pishirish pechini
xarid qilish uchun

TEXNIK TOPSHIRIQ

ShGKM – 2021 yil

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1. Nomi
"Sho'rtan GKM" MCHJ (keyingi o'rinlarda – Majmua) ishchi xodimlari ehtiyoji uchun non mahsulotini pishirish pechi komplekti.
1.2.Non pishirish pechi komplekti xaridining asosi va maqsadi
Asos: Majmua bosh direktori o'rinbosarining 2021 yil 13 avgust kunidagi 041/14342-sonli xizmat xati. Navbatdan tashqari buyurtma. Maqsad: Majmuaga qarashli UOS oshxonalar tarmog'i, Erkatoy MTT tarbiyalanuvchilari,Nasaf PFK ishchi xodimlarini kunlik non mahsuloti bilan ta'minlash.

2. NON PECHI KOMPLEKTIGA BO'LGAN TEXNIK TALABLAR

№	Nomi	Non pechining tavsifi		O'lchov birligi	Soni
1.	**Rotatsiyali (aylanma) pech**	Non pechi bir martada non kassetlarda qolipli non ishlab chiqaruvchanligi: 270 ta Non pechi eni: 1720 mm Non pechi balandligi: 2650 mm Non pechi ichi chuqurligi: 2580 mm Pishirish harorati: 280 C haroratgacha bug'lash kamerali Materiali: zanglamaydigan pulat Motor kuchi: 3 kVt/s Yoqilg'i turi: gaz bulishi shart.		dona	1
2.	**Non pechi aravasi**	Xususiyatlari: G'ildiraklar: fenolik issiqlikka bardoshli g'ildirak diametri 125 mm. Pishirish listi uchun 800x600 mm Tovoqlar soni: 16 ta Bir-biridan ajratib bo'lmaydigan payvandlangan ramka. Uzunligi, 815 mm Kengligi, 660 mm Balandligi, 1800 mm Ramka materiali zanglamaydigan po'latdan . Profil shakli 25x25 mm kvadrat trubkasi.		dona	4

TEXNIK TOPSHIRIQ VA TEXNIK XULOSALAR UCHUN

3	**Qolip 600 gr**	Ishlab chiqarishda non pishirish uchun professional, yuqori sifatli, qalin devorli shakl. Model: to'rtburchak Material: alyuminiy qotishmasi Nonning vazni: 600 gramm Uzunligi: 340 mm. Balandligi: 115 mm. Nonni pishirishning bu shakli fabrikada, barcha texnologik jarayonlarga muvofiq tayyorlanadi. Alyuminiy non qoliplari juda bardoshli, amaliy va mukammal sifatga ega.		dona	280
4.	**List**	Teshilmagan non listi tepsisi teflonsiz Pishirish varag'i - bu qirralari egilgan tekis varaq. Asosan, pishiriladigan tovoqlar non mahsulotlarini pishirish uchun ishlatiladi.		dona	64

4	**Un elaklash mashinasi.**	Unni saralash mashinasi qisqa vaqt ichida katta hajmdagi unni qayta ishlay oladi, quritadi, kislorod bilan to'ydiradi va iflosliklarni yo'q qiladi. Unni elakdan o'tkazish juda amaliy va uni joydan joyga ko'chirish oson. Eni 720 mm Umumiy balandligi 1635 mm Ishchi balandlik1180 mm Unni elaklash ishlashi 50 kg Unning elakchi og'irligi 100 kg Dvigatel kuchi 1,5 kVt.		dona	1
5	**Xamir qorish mashinasi**	Spiral xamir qorgich har xil turdagi xamirlarni kamroq vaqt va kuch bilan aralashtirishga qodir. Mikser kosasini turli yo'nalishlarda aylantirish mumkin, shuning uchun xamirni qisqa chiziqlarga yaxshilab yo'g'irishga erishiladi. Yoğurma mashinasini qo'lda yoki avtomatik rejimda boshqarish mumkin. Quvvat sarfi: 3,5...5,5 kVt Un solish hajmi: 50 kg Idish hajmi (xamir): 80 kg Qurilma eni: 720 mm		dona	1

TEXNIK TOPSHIRIQ VA TEXNIK XULOSALAR UCHUN

		Idish hajmi (xamir): 80 kg Qurilma eni: 720 mm Qurilma chuqurligi: 1220 mm Qurilma balandligi: 1310 mm Idish diametri: 720 mm			
6	**Iqlim nazorati qurilmasi**	Iqlim nazorati qurilmasi oldindan qizdirilgan va nam havo konvektsiyasi yordamida namlik va harorat darajasini saqlab turadi. Harorat va namlikka rioya qilishni nazorat qilish avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Nazorat paneli alohida o'rnatilganligi sababli, u namlik ta'siridan himoyalangan Qurilma eni: 605 mm Qurilma uzunligi: 350 mm Qurilma balandligi: 1460 mm Elektr sarfi: 5.5 kVt Harorat chegarasi: 0-40 C Namliligi: 0-80%		dona	1

3. PECHNI QABUL QILISh TARTIBI

Majmua tegishli mutaxassislari tomonidan belgilangan tartibda buyurtma shakllantiriladi.
Ijrochi mazkur texnik topshiriqqa mos sifatda rotatsiyali (aylanma) pech olib keladi.
Majmua mutaxassislari tomonidan yetkazib berilgan pech sifati va miqdori tekshirib ko'riladi, so'ngra Ijrochi va Majmua o'rtasida kirim qilish dalolatnomasi rasmiylashtiriladi.
Yetkazib berilgan pech sifati va miqdori bo'yicha e'tirozlar bo'lganda Ijrochi o'z hisobidan ularni to'g'rilashi yoki boshqa yangisiga almashtirishi shart.
Mahsulot qadog'ida mazkur mahsulot tipiga qo'yiladigan talablar bo'yicha tayyorlangan yorliq bo'lishi lozim . Yorliqda quyidagi yozuvlar bo'lishi shart:
Ishlab chiqarilgan davlat nomi;
Ishlab chiqarilgan korxona nomi;
Ishlab chiqarilgan korxona yoki sotuvchining yuridik manzili,Tovar belgisi (mavjud bo'lganda);
Model nomi;
Ishlab chiqarilgan sanasi va boshqa ma'lumotlar;

O'LCHAMI VA QADOQLASHGA BO'LGAN TALABLAR

Tovar o'lchami yuqoridagi bandga asosan, tovar ishlab chiqaruvchining qadog'ida qadoqlanishi shart. Qadoq yo'lda tashilishida va bir necha marta transport almashtirilishida tovarga nuqson yetkazilishidan himoya qilishi lozim. Noto'g'ri qadoqlash tufayli tovarga yetkazilgan zarar uchun yetkazib beruvchi javobgar hisoblanadi.

TEXNIK TOPSHIRIQ VA TEXNIK XULOSALAR UCHUN

TOPSHIRISH VA QABUL QILISHGA BO'LGAN TALABLAR

Tovar kirim nazorati natijasi bo'yicha qabul qilinadi. Kirim nazoratida tovarning butligi, tashqi ko'rinishi va ishlashi tekshirib ko'riladi hamda tegishli dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

Kirim nazorati vaqtida tovarning sifati butligi bo'yicha kamchiliklar aniqlanganda buyurtmachi kirimni darhol to'xtatishi va yetkazib beruvchini yozma ravishda 5 ish kuni davomida ogohlantirishi lozim. Yetkazib beruvchi 10 ish kunidan oshmagan muddatda o'z vakilining buyurtmachi omboriga yetib kelishini va kirim nazoratida ishtirokini ta'minlashi shart.

PECHNI YETKAZIB BERISHDA BUYURTMACHIGA TEXNIK VA BOSHQA HUJJATLARNI TOPSHIRISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Tovarga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim:

-muvofiqlik sertifikati;

-tovar nomi,narxi va jami summasi ko'rsatilgan sotuvchining hisobvaraq fakturasi ;

-ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan sifat sertifikati;

-tovarning texnik pasporti;

-foydalanuvchi qo'llanmasi;

KAFOLAT HAJMI VA MUDDATIGA TALABLAR

Kafolat muddati kamida – 36 oy. Kafolat tovarning barcha qismlari uchun beriladi.Yetkazib beruvchi ishlab chiqaruvchi zavoddan yoki uning rasmiy vakilidan (distribyutordan) sifatli Tovar yetkazib berishi zarur. Kafolat muddati davomida tovarlar ishdan chiqsa, yetkazib beruvchi o'z hisobidan ta'mirlash yoki almashtirishga majburdir.

TA'MIRLASH YAROQLIGIGA TALABLAR

Tovar va uning asosiy tashkil etuvchi qismlarining ta'mirlash imkoniyati mavjud bo'lishi shart. Yetkazib beruvchi tovarning nosozligi haqida xabar olgandan so'ng ,aniqlangan nosozlikni 10 kun ichida bartaraf etishi shart va kafolat muddati davomida bepul xizmat ko'rsatish majburiyatini oladi.

EKOLOGIK VA SANITARIYA TALABLARI

Tovardan foydalanishda quyidagilar ta'minlanishi kerak:

-tovarlarni ishlatishda, saqlashda shuningdek ularni utilizatsiya qilishda xavfsiz bo'lishi kerak;

-tovar atrof muhitga zarar yetkazmasligi kerak.

Tovarning ekologik va sanitariya talablari O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan qonun talablariga javob berishi kerak.

ENERGIYA SAMARADORLIGI TALABLARI

Tovarning energiya jihatidan samaradorligi O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan qonun talablariga javob berishi kerak.

XAVFSIZLIK TALABLARI

Tovarning xavfsizlik talablari O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan qonun talablariga javob berishi kerak.

SIFAT VA KLASSIFIKATSIYA TALABLARI

Tovar ushbu texnik topshiriqda ko'rsatilgan barcha texnik talablarga va parametrlarda ko'rsatilgan barcha texnik talablarga to'liq javob berishi kerak.

MIQDORI,BUTLIGI,YETKAZIB BERISH JOYI VA MUDDATLARIGA (DAVRIYLIGIGA) TALABLAR

Tovarning miqdori quyidagicha: Rotatsiyali (aylanma) pech – 1 dona, non pechi aravasi- 4 dona, qolip 600 gr-280 dona, list- 64 dona, un elaklash mashinasi - 1 dona, xamir qorish mashinasi – 1 dona, iqlim nazorati qurilmasi- 1 dona.

"Shurtan gaz kimyo majmuasi" MCHJ MTRB xizmati O'zbekiston FTGAZ AJ
TEXNIK TOPSHIRIQ VA TEXNIK XULOSALAR UCHUN

4. JIHOZLARNI KAFOLATIGA TALABLAR

Tovar sifatiga Ijrochi tomonidan qonunchilikda nazarda tutilgan muddatlarda kafolat muddati taqdim etiladi.

5. IJROChIGA TALABLAR

Ijrochi quyidagi talablarga javob berishi lozim:

1. Tugatilish yoki bankrotlik arafasida bo'lmasligi;
2. Majmua bilan sudlashuv o'tkazgan va sudlashuv jarayonida bo'lmasligi;
3. Noinsof yetkazib beruvchilar reestrida bo'lmasligi;
4. Soliq va boshqa turdagi qarzdorliklari bo'lmasligi.

6. TO'LOV ShARTLARI

Tomonlar o'rtasida kirim qilish dalolatnomasi rasmiylashtirilgandan so'ng 10 kalendar kunida ijrochi hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li orqali to'lov amalga oshiriladi.

7. JIHOZLARNI YETKAZISH JOYI

O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumani, Sho'rtan qo'rg'oni 180300.

8. JIHOZLARNI YETKAZISH MUDDATI

Shartnoma imzolangan kundan 30 ish kunida.

Ishlab chiqdi
UOS tovarshunosi _____ B. Bozorov

Kelishildi:
SS va MM xizmati boshligi: _____ Z. Rashidov

IChKB boshlig'i: _____ A. Qurbanov

Asbob uskunalar bazasi boshligi: _____ O. Salaev

UOS boshlig'i o'rinbosari _____ Sh. Narmanov

MTRBX muhandisi: _____ B. Boybachchaev